

**Usmanova Muhayyo Baxtiyor qizi**

G‘allaorol tuman XTBga qarashli

30-umumta‘lim maktabi boshlang‘ich

sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida ergonim tushunchasi, ergonimlarning lisoniy va ma‘naviy xususiyatlari Jizzax viloyati misolida tasnif qilingan. Ergonimlar qanday tanlanishi va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ergonim, onomastika, oykomodonim, ergourbonim, denotat, firmonim, restoronim, trofonim, ergoreklamonim.

Аннотация. В данной статье на примере Джизакской области рассматривается понятие эргонима в узбекском языке, а также проводится классификация языковых и семантических особенностей эргонимов. Анализируются принципы выбора эргонимов и их значение в лингвистике.

Ключевые слова. эргоним, ономастика, ойкомодоним, эргоурбоним, денотат, фирмоним, рестороном, трофоним, эргорекламиним.

Annotation. This article examines the concept of ergonym in the Uzbek language and classifies the linguistic and semantic features of ergonyms based on the example of the Jizzakh region. It also discusses the principles of selecting ergonyms and their significance in linguistics.

Keywords. ergonym, onomastics, oikomomonym, ergourbonym, denotate, firmonym, restouronym, trophononym, ergoadvertising name.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda keng o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu ayniqsa, jamiyatning ma‘naviy hayotida o‘z aksini topmoqda. Turli doiradagi ilmiy va adabiy manbalarni tadqiq etishda keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Ularni ilmiy – tadqiqot doirasiga kiritib, olingan natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishining 30 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan nutqida keltirganidek: “Jamiyatimizda til bilan bog‘liq eng ko‘p muhokama qilinayotgan, haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan mavzu - bu joy nomlarini belgilash masalasi, desak xato bo‘lmaydi. Afsuski, jamoat joylarida, ko‘chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko‘pincha xorijiy tillarda, ma‘naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy



savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o‘rganib chiqishi va tartibga solishi zarur. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim, hech qachin unutmazligi kerak “1.

Ushbu fikrlar shubhasiz, o‘zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar bilan aloqador. Zamonaviy onomastika (nomshunoslik)ning keng tarzda rivojlanib va tarqqiy etayotgan sohasi ergonomiyadir. Ergonimlar har bir hududning iqtisodiy madaniy jihatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik obyektlardir. Ular nafaqat joylashgan mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, balki, o‘sha hududdagi milliy va madaniy xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Rivojlanib borayotgan bugungi kunda ko‘plab korxonalar, tashkilot, firmalar, fermer xo‘jaliklari, do‘konlar paydo bo‘lmoqda. Ularning ishlab chiqarish sanoatidagi o‘rnini to‘la-to‘kis namoyon etuvchi jihatlaridan biri – nom qo‘yish masalasidir. Mazkur jarayon, ya‘ni obyektlarga nom berish shunchaki individuallik kasb etmasdan, balki lisoniy va ma’naviy jarayon hisoblanadi. Chunki toponimik jarayonlar har bir millat va xalq madaniyati bilan bog‘liqlikni taqazo etadi. Shunga binoan atoqli tilshunos E.Begmatov fikricha, toponimikada tadqiq etilishi kutilayotgan masalalar talaygina.²

Ulardan biri ergonomikalar masalasidir. Ergonimika – onomastikaning bir bo‘limidir. Ergonimika (yunoncha – ish, faoliyat, mehnat) degan ma’noni bildiradi. Bu termin 1949-yil Angliyada shu sohada tadqiqot ishlarini olib boruvchi jamiyat tomonidan amaliyotga kiritilgan. Tilshunoslikda “ergonim” atamasi birinchi marta 1978-yil N.V.Podolskayaning “Rus onomastik terminologiyasi“ lug‘atida taklif qilindi. Podolskaya “ergonim” atamasini kishilar birlashmasi, shu jumladan, kasaba uyushmasi, tashkilot, muassasa, korporatsiya, korxonalar, jamiyat nomlariga nisbatan qo‘llagan.

Zamonaviy tilshunoslikda ergonomikalar lisoniy jihatdan tadqiq qilinishi toponimlarni o‘rganilishi bilan bog‘liqdir. Ergonimlar murakkab lingvistik va madaniy hodisa bo‘lib, unda til ichidagi va ekstralingvistik omillar o‘zaro ta’sir qiladi: individuallashtiruvchi nominatsiya kompaniya mulkiga aylanadi va shu bilan birga egalik belgisi, ya‘ni lingvistik emas, balki ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan mulkni

¹ Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimizning timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019-yil 22-B

² Bu haqda Siddiqov J.Ta’lim muassasalari nomlari bilan bog‘liq ayrim mulohazalar. International Conference on Adaptive Learning Technologies. 31-b



himoya qilish vazifasini bajara boshlaydi”³ . Xususan, rus tilshunosligida ergonimlarning turlari sifatida quyidagilar kiritilgan: 1-oykomodonimlar- do‘kon, firma, bank, turar joy binolari peshtoqlaridagi nomlar (I. A. Astafeva); 2- ergourbonimlar- ikkita denotatga ega, ya’ni tijorat tashkilotlari o‘zi joylashgan hudud nomi bilan bog‘liq local obyekt nomlari (R. Kozlov); 3- NKP (nazvaniya kommercheskix predpriyatiy) (D.A. Yaloves –Konovalova); 4- firmonimlar- firma nomlari (O. Beley, V. Korshunova, T. Nikolaeva, Y.Ribak, A. Titarenko); 5- Restoronimlar- restoran nomlari(Xoang Txi Xong Chang); 6-trofonimlar – umumiy ovqatlanish obyektlari nomlari (G.N Starikova); 7- ergoreklamonim- reklama vazifasini bajaruvchi tijorat obyektlari nomlari (T.V. Vasileva)⁴.

Har bir nom faoliyat turiga qarab ergonim sifatida tanlanadi. Shunga ko‘ra ularning yasalishi ham turlicha bo‘ladi. Ergonimlarning ba’zilar turmushimizdagi yangiliklarni ko‘rsatmoqda va bu bilan leksikamizning boyishiga hissa qo‘shmoqda. Ammo boshqa tomondan esa ushbu so‘zlar oddiy xalq uchun tushunishga biroz qiyinroq. Shu sababli ularga mavhum tushuncha sifatida qaraymiz.

O‘zbek tilida har qanday birliklarni tadqiq qilishda uning grammatik va morfemik tahliliga ham e’tibor qaratiladi. Shunga binoan ergonimlar tub va yasama shaklda bo‘lishi tabiiy holdir, chunki ular ham har bir til lisoniy qoidalariga bo‘ysinadi. Ergonimlarning yasama so‘zlar shaklida bo‘lishi tub shaklidan ko‘ra ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, so‘zga qo‘shimcha qo‘shish orqali: “ Paxtakor” MFY, “Gulzor” QFY; mustaqil so‘zlarni bir-biriga qo‘shish orqali: “Elektrotexnika” do‘koni. Bular ergonimlarning lisoniy shakl ko‘rinishidir.

Ularning ma’noviy o‘ziga xosligi va ma’lum maqsad asosida nom berilishi iste’molchilarni tezroq jalb qilish motivlari bilan bog‘liqdir. Chunki muvaffaqiyatga erishish bevosita nomga bog‘liq, negaki, tanlangan nom atrofdagilar va iste’molchi tomonidan tez yodda qoladigan va to‘g‘ri talaffuz qilinadigan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, qo‘yilgan nom boshqa raqobatchilarnikidan ajralib turishi va atrofdagilar bu nomni eshitgan vaqtda ularning ko‘z o‘ngida tasavvur paydo bo‘lishi kerak. Har qanday nom ergonim sifatida tanlanayotganda yuqoridagi xususiyatlarga e’tibor berib, amal qilib va maqsadli ravishda tanlanishi lozim.

Bundan tashqari, ergonimlar o‘zi joylashgan manzil bo‘yicha qo‘yilishi mumkin. Masalan, “Jizzax” mehmonxonasi, “Baxmal” tekstil. (Jizzax viloyatida joylashgan). Hozirda eng ko‘p qo‘yilayotgan nomlardan biri kishi ismlarining nom sifatida

³ Bu haqda Boysunova M. Ergonimlarning nomlanish jarayoni. Central Asian journal of education and innovation.148

⁴ Bu haqda Saparniyazova M. Ergonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni va tadbiqi. Oriental Journal of philology 40-b



tanlanishidir. Masalan ,”Oysha ‘ go‘zallik saloni , “Sa’diya” do‘koni. Lekin hozirda bunday nom tanlash tavsiya etilmaydi. Nom obyektning faoliyatini va u haqidagi dastlabki ma’lumotni berib turishi kerak. Masalan , “Bolajon” do‘koni. Ba’zi holatlar borki, qo‘yilgan nom faoliyat bilan mutlaqo bog‘liq emas, ammo u jarangdor , o‘qilishi oson va qulay so‘zlar. Masalan ,“Shirin dunyo” do‘koni, “Izumrud” bekati.

Yuqorida keltirilgan ergonimlar ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar bo‘lib jahon tilshunosligi , xususan, rus tilshunosligida chuqur o‘rganilgan. XX asrning 60-yillarida M.L. Shetinin , B.Z.Bukchina , G.A Zolotova , A.V. Superanskaya , V. D. Bondaletov kabi tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida aks ettirgan⁵

Jizzax viloyati ergonimlarini tadqiq qilish jarayonida ot so‘z turkumidagi nomlardan tashqari son so‘z turkumi bilan ifodalangan raqamlar shaklidagi nomlarni ham obyekt sifatida tanladik. Masalan , “555” kafesi, “777” mehmonxonasi. Nom sifatida tanlangan ushbu sonlar qaysidir ma’noda ramziylikka egadir. Butun dunyo xalqlari ma’naviy hayoti, mifologiyasi, dini, falsafiy qarashlarida raqamlar alohida o‘rin egallaydi. “ Ammo ular orasida eng ko‘p e’tibor qaratilgani va aytish mumkin, eng “mashhur”i yetti raqamidir. Bu raqam magik raqam deb ham, sehrli raqam deb ham, sakral raqam deb ham yuritilgan. Yetti raqami donishmandlik, muqaddaslik va sirli bilimlarni o‘zida jamlagani uchun ham qadim zamonlardan buyon inson uchun tabiatni anglash vositasi bo‘lib kelgan⁶.

Onomastikaning toponim va ergonim sohalari bir-biri bilan aloqadordir. Atoqli tilshunos B. O‘rinboyev bu haqida quyidagilarni qayd qiladi: Ma’lumki , har bir onimik leksema ma’lum bir ma’noni beradi, ya’ni leksema joy yoki shaxs haqida xabarni yetkazishi mumkin. Bu xabar esa maxsus onomastic vazifani bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda , bir onomastik leksema bir sohada emas , balki, bir necha sohada ham ma’lum bir xabarni tashishi mukin. Shaklan bir xil mazmuni har xil bo‘lgan onimlar onomastikada onimiyani vujudga keltiradi: Guliston (shahar), Guliston (antroponim). Botir (antroponim), botir (sifat), Kumush (antroponim), kumush (ot) kabilardir⁷.

Xulosa qilib aytganda, ergonimlar o‘zining lingvistik tuzilishi va ma’nosi orqali til hamda madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. O‘zbek tilidagi ergonimlar nafaqat iqtisodiy faoliyatni ifodalashda , balki, milliy qadriyatlarni

⁵ Kultayeva F. Ergonimlarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.// International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa Turkey. Oct. 26 2022.133-b

⁶ Djumayeva S. Yetti va to‘qqiz raqamlarining ramziy mohiyati // file: ///C :/Users /user/ Downloads/7 .+Sofiya+ Djumayeva1. pdf

⁷ Bu haqida Saparniyazova M. Ergonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni va tadqiqi. Oriental Journal of Philology. 42-b



IQTIDOR & INTELLEKT

saqlashda tarixiy va madaniy merosni targ'ib qilishda muhimrol o'ynaydi. Shu sababli ergonimlarni tahlil qilish tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. Xalq so'zi 2019-yil 22-oktyabr.218-soni

Siddiqov J.N. Ta'lim muassasalari nomlari bilan bog'liq ayrim mulohazalar. International Conference on Adaptive Learning Technologies 2024

Boysunova M. Ergonimlarning nomlanish jarayoni. Central Asian journal of education and innovation. 2023

Saparniyazova M. Ergonimlarning onomastik tizimdagi o'rni va tadbiqu. Oriental Journal of philology 2024

Kultayeva F. Ergonimlarning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi// International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa Turkey. Oct 26 2022

Djumayeva S. Yetti va to'qqiz raqamlarining ramziy mohiyati 2020